



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 18-aprel, shanba,
35 (24.215)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yaxshi yigit
yurt tuzar,
yomon yigit
yurt buzar

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

► Prezident farmoniga ko'ra

Aholi murojaatlari bilan ishlash

yangi tafakkur, yangi yondashuv

Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi eng avvalo, uning fuqarolari bilan qanday muloqot o'rnatganiga bog'liq. Chunki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi bilan muloqot tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentning **"Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi farmoni aynan shu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat nafaqat davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, balki fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Farmonda aholi bilan muloqot tizimini takomillashtirishning bir nechta ustuvor maqsadlari belgilab berilgan.

Birinchidan, davlat organlari va aholi o'rtasida ochiq va samarali muloqotni ta'minlash. Bu har bir murojaat e'tiborsiz qolmasligi, har bir masala o'z vaqtida ko'rib chiqilishini anglatadi.

Ikkinchidan, Xalq qabulxonalarining yagona vertikal tizimini joriy etish. Bu orqali barcha hududlardagi qabulxonalar bir tizim asosida ishlaydi, boshqaruv va nazorat kuchayadi.

Uchinchidan, "mahalla yetilligi" va axborot xizmatlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Bu esa murojaatlarni bevosita joylarda hal qilish imkonini beradi.

RAHBARLAR HISOB BERADI, JAVOBGARLIK OSHADI

Endi davlat organlari rahbarlari aholi murojaatlari bilan ishlash bo'yicha muntazam ravishda hisobot beradi. Nafaqat yuqori tashkilotlarga, balki parlament va mahalliy kengashlar oldida ham.

Bu esa ochiqlikka, mas'uliyatga va boshqaruv organlari rahbarlarining xalq oldida hisobdorligiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, rahbarlar endi faqat kabinetda o'tirib ishlamaydi. Ular joylarga tushadi, odamlar bilan yuzma-yuz gaplashadi, muammolarni joyida hal qiladi.

Farmonga ko'ra, **endi Xalq qabulxonalariga jamoatchilik asosida hokimlar rahbarlik qiladi.** Bu esa ularning aholi bilan bevosita ishlashini ta'minlaydi.

Bu amaliyot orqali "kabinetdan boshqarish" emas, balki joylardagi real holatni o'rganishga e'tibor kuchayadi.

Faqatgina murojaatlarni ko'rib chiqish yetarli emas. Eng muhimi, ular orqali kelib chiqadigan tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish kerak bo'ladi.

Shu maqsadda:

- davlat organlarida ishchi gu-ruhlari tashkil etiladi;
- ular muammolarni tahlil qiladi;

- har uch oyda takliflar taqdim etadi.
- Bu esa muammolar takrorlanishi-ning oldini oladi.

REYTING TIZIMI: KIM SAMARALI ISHLAYAPTI?

Shaxsiy va sayyor qabullarni raqamlashtirish orqali butun jarayon ustidan nazorat o'rnatiladi. Bu shaffoflikni oshiradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi, ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Yana bir muhim yangilik — davlat organlari va hokimliklar faoliyatini baholash uchun reyting joriy etilishi. Bu reytingda murojaatlar soni, ularni hal etish darajasi, muddatlarga rioya qilish va takroriy murojaatlar soni hisobga olinadi:

Yangi tartibga ko'ra, **joriy yil 1-maydan** Virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar ustidan kuchli nazorat o'rnatiladi.

Eng muhim yangiliklardan biri — murojaatlarning avtomatik nazorati. Agar murojaat belgilangan muddatda ko'rib chiqilmasa, u avtomatik ravishda yuqori turuvchi organga o'tadi.

Shuningdek, murojaatlar:

- shoshilinch,
- odatiy,
- maslahat talab qiluvchi toifalariga ajratiladi. Bu esa har bir murojaatga individual yondashuvni ta'minlaydi.
- Samarali ta'sir mexanizmi Prezident Xalq qabulxonasiga keng vakolatlar berilgan. Endi u:
 - davlat organlaridan ma'lumot talab qilishi mumkin;
 - tekshiruvlar o'tkazadi;
 - qonunbuzilish holatlarini sudga oshiradi;
 - rahbarlarga majburiy ko'rsatmalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu farmon faqat hujjat emas. Bu — yangi tafakkur, yangi yondashuv, yangi davr belgisi. Zotan, aholi bilan muloqot tizimini takomillashtirish — bu shunchaki ma'muriy islohot emas. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish demakdir.

Muhimi, **bu islohotlar fuqarolar-ni faqatgina kuzatuvchi emas, balki davlat boshqaruvida faol ishtirokchiga aylantiradi.**

Y.MARQAYEV.

► Viloyat hokimligida



SAMARQAND VA AFG'ONISTON

o'rtasida savdo — iqtisodiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi

Viloyat hokimi Adiz Boboyev O'zbekiston— Afg'oniston chegarasidagi "Ayrptom" erkin savdo zonasida Afg'oniston tomonidan vakil sifatida faoliyat yuritib kelayotgan Sayed Zaher Shah Og'a bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot davomida Sayed Zaher Shah Og'a viloyatimiz tadbirkorlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish, chegara hududida logistika tizimini takomillashtirish hamda biznes infratuzilmasini

kengaytirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi.

O'z navbatida, viloyat rahbari Afg'onistonning Mozori Sharif, Maymana, Faryob va Tohar kabi hududlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish masalasiga e'tibor qaratdi. Ushbu hududlarning ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlariga qiziqish bildirdi.

Uchrashuv yakunida tomonlar amaliy muloqotni yanada faollashtirish, o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash hamda qo'shma loyihalarni rivojlantirish bo'yicha kelishib oldilar.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.

► Bir murojaat izidan

QARORLAR O'ZGARDI, moliyalashtirish kechikdi,

ayb kimda?

2023-2024-yillarda sement-beton yo'llarni qurish ishlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan, masofa 61,5 kilometrta qisqartirilgan va qaror ijrosi mas'ullarga yuklatilgan.

Ya'ni, birinchi ro'yxatda keltirilgan Yangiheyot va boshqa mahallalar loyiha-dan chiqarilib, Ishitxon tumanidan 11, Qo'shrabotda 14,5, Narpayda 8, Nuro-bodda 4, Oqdaryoda 6, Payariqda 5, Past Darg'omda 4, Paxtachida 7, Urgut tumanida 2 kilometr mahalliy yo'lda sement-beton qoplamasi yotqizilishi belgilangan.

Masalan, Narpay tumanidagi Toshko'pri va Turon mahallalarida 4 kilometrda yo'lda sement-beton qoplamasi yotqizilishi belgilangandi. Ammo ishlar hali boshlanmagan. Tuman hokimining o'rinbosari D.Ziyodullayevning ma'lum qilishicha, ishlar boshlanmagach, bu yo'llarning katta qismiga qo'shimcha manbalar hisobidan asfalt yotqizilgan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan viloyat avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi boshlig'i A.O'roqovning 2024-yil 3-apreldagi xatiga javoban Avtomobil yo'llari qo'mitasi tasarrufidagi "Avtoyo'linvest" agentligi rahbari o'rinbosari A.Isayevning javob xatida shunday yoziladi: **"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi "Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-dekabrda 723-son qarorlari asosida "Sement-beton qoplamali ichki yo'llarni qurish" loyihasi uch bosqichda amalga oshirilmoqda.**

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida **"Sement-beton qoplamali ichki yo'llarni qurish" loyihasi doirasida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida 2023-yil 8-sentabrda loy-**

ihani amalga oshirish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolandi. Loyihani amalga oshirish uchun **"Yo'l-Loyiha Byurosi" MChJ loyihalash instituti tomonidan loyihaning texnik-iqtisodiy asosi (TIA) ishlab chiqilgan bo'lib, 2023-yil oktabr, noyabr oylarida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligidan ekspertiza xulosalari olingan. Loyihani amalga oshirish yuzasidan tegishli qaror loyihasi tasdiqlash uchun 2024-yil 22-yanvarda Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilingan bo'lib, Samarqand viloyatida qurilish ishlari uchinchi bosqich doirasida 2025-yilda boshlanishi belgilanganligini ma'lum qilamiz".**

Javob xati mazmunidan vaqtndan yutish va rasmiyatchilik uchun xat yuborilgandek taassurot uyg'otadi. Amalda esa 2025-yil tugab, 2026-yilning birinchi choragi yakunlandi hamki belgilangan vazifalar ijrosiga kirishilmadi. Nega?

- Dastlabki tasdiqlangan rejada mahalliy yo'l o'rniga ichki yo'llar ko'rsatilganligi tufayli loyiha qaytadan tayyorlangandi, ikkinchi tasdiqlangan loyiha doirasida hujjatlashtirish biroz cho'zildi va moliyalashtirish kechikdi, - deydi viloyat avtomobil yo'llari boshqarmasi shuba boshlig'i Farrux Eshmatov. - Osiyo taraqqiyot banki mutaxassislari tomonidan loyiha doirasida ajratiladigan va talab etiladigan mablag'lar puxta o'rganildi va yakuniy jarayon boshlandi. Rejaga ko'ra 2026-2027-yillarda tasdiqlangan loyihani amalga oshirish kozda tutilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, "Zarafshon" muxbiri.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Sirojiddin RAUF, "Sharq yulduzi" jurnali bosh muharriri:

- Inson voyaga yetgach, mukofot berib ham kitobga qaytarishning imkoni yo'q. Ularni bu borada maktab ta'limi davridan tarbiyalash zarur. Shuning uchun "G'uncha", "Gulxan", "Yoshlik", "Sharq yulduzi" maktab partasida, o'quvchilarning darsliklari bilan yonma-yon turishi kerak. O'shanda u maktabdan keyingi ta'lim jarayonida, ish jarayonida kitobdan ajralmaydi...

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

JOMBOY TUMANI



Jomboy mahsulotlarining dunyo bozoriga chiqishi uchun yangi yo'laklar ochadi. 2026-yilda eksport hajmini 115,5 million dollarga yetkazish rejasini bu intilishlarning amaliy ifodasidir.

"KAMBAG'ALLIKDAN XOLI HUDUD" VA BANDLIK STRATEGIYASI

Maqolaning eng muhim nuqtasi inson kapitali va ijtimoiy himoyadir. Jomboy tumani 2026-yilda kambag'allik dara-

jasini minimal ko'rsatkichlarga tushirib, hududni "kambag'allikdan xoli hudud"ga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bunga qanday erishiladi?

- 1213 ta oilani tizimli qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikdan chiqariladi;
- "Teng imkon — inklyuziv bandlik" dasturi doirasida 192 nafar nogironligi bo'lgan shaxs ish bilan ta'minlanadi;
- "Mehnatsevar ayol" loyihasi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj 478 nafar xotin-qizga daromad manbai yaratiladi;
- "Barqaror kelajak sari" dasturi bilan 1160 nafar yoshlarni doimiy ishga joylashadi.

Shuningdek, "soyadan chiqarish" tadbirlari orqali 3176 ta yashirin ish o'rinlari legallashtirish ko'zda tutilgan.

Tuman qiyofasini yangilash doirasida 14 ta ko'p qavatli uy-joy qurilishi, 33,4 kilometr ichki yo'llarni ta'mirlash va ichimlik suvi ta'minotini 66,9 foizga yetkazish bo'yicha ham aniq vazifalar belgilangan. Eski Jomboy va G'azira mahallalari esa Yangi O'zbekiston qiyofasidagi hududning o'sish nuqtalariga aylanadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida "Yashil makon" loyihasi doirasida yil davomida 1,1 million tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekiladi. Bu

Jomboyning nafaqat iqtisodiy, balki yashil va musaffo hudud bo'lib qolishini kafolatlaydi.

BIR KONTUR – BIR MAHSULOT

Jomboy — azaldan dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan hudud. 2026-yilda "Bir kontur – bir mahsulot" tamoyili joriy etiladi. Aholiga ijaraga berilgan 755 gektar yerda yagona turdagi xaridorgir mahsulot yetishtirish orqali 2600 nafar fuqaroning daromadlarini 1,5-3 baravarga oshirish rejalashtirilgan.

Suv tejavchi texnologiyalarning 2986 gektar maydonda qo'llanilishi esa global iqlim o'zgarishi davrida suv resurslaridan oqilona foydalanishning eng to'g'ri yo'lidir.

2026-yilda inson salomatligi va ta'limi uchun ham ulkan investitsiyalar kiritiladi. 17 ta ijtimoiy soha obyekti qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi. Aholi orasida yurak qon-tomir va qandli diabet kasalliklarini erta aniqlash uchun 46 mingdan ortiq fuqaroni ommaviy skriningdan o'tkazish tibbiyotning asosiy yo'nalishi bo'ladi.

Mahallalarda 20 ta yangi kutubxona tashkil etilishi, yoshlar o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi"ning o'tkazilishi va IT-park rezidentlari sonining ko'paytirilishi Jomboyning ma'naviy va raqamli kelajagi-ga qo'yilgan qadamdur.

X.ERGASHEVA.

Keyingi yillarda o'quvchilarga chet tilini yanada yaxshi o'rgatish maqsadida maktablarga xorijdan chet tili o'qituvchilari jalb qilinayapti. Bugun viloyatimizda 117 nafar xorijlik o'qituvchi maktablarda chet tili fanidan dars bermoqda. Toyloq tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida filippinlik Kateleen Rose Milla Comahid ingliz tilidan assistent o'qituvchi sifatida faoliyat olib bermoqda. U uch yil o'z vatanida, besh yil turli mamlakatlarda xorijlik fuqarolarga ingliz tilidan dars bergan. U bilan maktab ta'limi haqida suhbatlashdik.

FILIPPIN DA MAKTAB O'QITUVCHILARI DOKTORANTURADA O'QISHI SHART



- Kateleen Rose, siz avval ham O'zbekistonda bo'lganmisiz? Maktablari-mizni qanday tasavvur qilgandingsiz?

- O'zbekistonda birinchi marta bo'lishim, lekin kelishimdan oldin Googleden O'zbekiston haqida ma'lumotlar bilan tanishganman. Men O'zbekistonda tarixga boy, qadimiy davlat ekanini bildim. Bu yerga kelganimda mahalliy aholining samimiyligi, mehmondostligi meni quvontirdi. Shu sababli bu yerda yashash va ishlashimda muammo bo'lmadi.

- Bizdagi o'qitish usulining sizning davlatning maktablaridan qanday farqli jihat-lari bor?

- Ikkala davlatning o'qitish usulida katta farq ko'rmadim. Sizning davlatingizda ham bizning davlatimizda ham o'quvchilar markazda bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Misol uchun, bu yerda ham bizdagidek an'anaviy darsdan ko'ra no'an'anaviy dars o'tish muhim ekan. Hozirgi zamon talabi shundaki, maktablarda darslar no'an'anaviy tarzda tashkil etilmoqda. Avvallari maktablarda an'anaviy tarzda dars o'tilgan bo'lsa, endilikda o'quvchilarni yo'qlama qilish, uyga vazifani so'rash, yangi dars

o'tish kabilar o'yin tarzida o'tiladi va ko'proq o'qituvchi emas, o'quvchilar gapiradi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilar dars jarayonida markazda bo'ladi.

- Toyloqdagi maktab bolalarining darsni o'zlashtirishi, ingliz tiliga qiziqishi qanday?

- Men bir necha davlatlarda dars berganman, lekin o'zbekistonlik bolalarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori ekan. To'g'ri, maktabda sho'x o'quvchilar yo'q emas, boshqa davlatlarda ham sho'x o'quvchilar bo'ladi, lekin toyloqlik o'quvchilar ingliz tilini yaxshi ko'rib o'rganyapti. Ayniqsa, quyi sinf o'quvchilari chet tilini o'rganishga juda qiziqadi. Yuqori sinf o'quvchilari ham ingliz tilini yaxshi ko'radi, ammo 5-6-sinf o'quvchilarida chet tiliga qiziqish kuchliroq. Men haftada ikki kun darsdan keyin to'garak mashg'ulotlari olib boraman. Ingliz tilini yanada yaxshiroq o'rganishni istagan o'quvchilar to'garaklarga qatnashyapti.

- Filippinda o'qituvchilar qanday ishga olinadi? Faqat diplom bilan ishga kirsab o'ladimi?

- Bizning davlatimizda o'qituvchiga dars berish uchun bakalavr diplomidan tashqari

litsenziya, ish tajribasi, chet tili o'qituvchisi bo'lsa til bilish sertifikatini ham bo'lishi kerak. O'qituvchi litsenziya olish uchun maxsus imtihondan o'tishi lozim. Birgina bakalavr diplomi bilan ishlay olmaydi.

- Bizda o'qituvchilarning malaka toifasiga qarab ish haqi ko'tarilib boradi. Sizlarda-chi?

- Filippinda maktab o'qituvchilari magistratura va doktoranturaga o'qishi muhim hisoblanadi. Pedagog magistratura va doktoranturaga o'qigan va ko'p sertifikatlariga ega bo'lsa, yuqori maosh oladi. Bizda maktab o'qituvchilarining doktoranturaga o'qishi davlat tomonidan majburiy qilib qo'yilgan. Men ayni paytda magistraturada onlayn o'qiyapman, maktabdagi darslardan keyin o'qishimga vaqt bo'lyapti. O'zbekistonga kelmasimdan oldin Vetnamda ingliz tilidan dars berdim, u yerda ishlaganimda o'qishimga vaqtim bo'lmadi.

- Sizning mamlakatingizda maktab bitiruvchilari oliy ta'lim muassasasiga qanday qabul qilinadi?

- Bizda davlat va xususiy universitetlar bo'lib, davlat oliy ta'lim muassasasiga maxsus test sinovlaridan o'tganlar talabalikka qabul qilinadi. Xususiy oliy ta'lim muassasalariga kontrakt pulini to'lab o'qiydi. Agar talaba o'qishi davomida yaxshi o'qisa, stipendiyaga ega bo'ladi. Masalan, men ham talabaligimda yaxshi o'qiganim uchun stipendiya sohibi bo'lganman. Agar talabaning bilimi yaxshi bo'lmasa, u kontrakt puli to'lab o'qiydi.

- O'quvchilar chet tilini yaxshi o'zlashtirishi uchun siz qanday uslubdan foydalanasiz?

- O'qituvchi o'quvchilarning darajasiga qarab dars o'tishi, har bir o'quvchiga tabiatidan kelib chiqib, alohida-alohida yondashishi va bir xil o'qitish metodidan qochish, ya'ni har xil usullardan foydalanib dars o'tish tarafdoriman.

- Kelganingizdan buyon bayramlarimiz yoki to'y-tomoshalarimizda qatnashdinizmi?

- Bir marta to'yda mehmon bo'ldim. Haqiqatda boshqa millat to'ylarida ishtirok etsa, yangicha madaniyat o'rganish mumkin. Bizda ilgari xuddi sizlarda-gidek dabdabali to'ylar o'tkazilardi. Hozirgi kunga kelib, moliyaviy xarajatlarni hisobga olgan holda to'ylarimiz tor doirada tashkil etiladi.

- Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.

Xurshida ERNAZAROVA suhbatlashdi.

EHTIYOT BO'LING: OILAVIY ZAHARLANISH

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Qo'shrabot va Payariq tumanlarida qo'lbola konservalardan zaharlanish holatlari qayd etildi. Bemorlar bilan o'tkazilgan so'rov-surishtiruvda va ularning kasallik tarixini o'rganish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, ular uy sharoitida tayyorlangan pomidor marinovkasi iste'mol qilish natijasida zaharlangan.

Baqlajon ikra

Shifoxonada bemorlar har tomonlama tekshirilib ularga botulizm tashxisi qo'yilgan va malakali tibbiy yordam ko'rsatilishiga qaramasdan Qo'shrabot tumanida 5 yoshli bolaning hayotini saqlab qolishning imkon bo'lmadi.

Payariqlik bemor - uy bekasi qo'shni mahallada yashovchi ammasining uyidan olib kelingan konservalangan ikrani farzandlariga berishdan oldin o'zi tatib ko'rib, sifatsizligiga gumon qilgandan so'ng to'kib tashlaydi, lekin o'zi zaharlanadi. Qo'shrabot tumanida qayd etilgan holatda esa kechki ovqat bilan iste'mol qilingan konservalangan ikraning qolganini ertasi kuni nonushtada iste'mol qilgan barcha oila a'zolari shifoxonaga og'ir ahvolda yotqizilgan.

Ko'za kunda emas, kunida sinadi

Xalq orasida "Men har doim uyda marinovka tayyorlab iste'mol qilib kelaman, lekin zaharlanmaganmiz-ku" degan gaplar bor. Afsuski "ko'za kunda emas, kunida sinadi" degan naql bekorga aytilmagan.

Chunki konserva bankasining qaysi biri botulizm mikrobi bilan ifloslangan yoki ifloslanmaganligini bilib bo'lmaydi.

Botulizm mikroblari asosan anaerob "kislordsiz" sharoitda ko'payadi, germetik yopilgan konserva bankalari bunor uchun qulay sharoit hisoblanadi. Meva-sabzavot konservalarida ular tez ko'payadi.

O'linga olib keluvchi simptomlar

Botulizm mikrobinin toksini asosan markaziy asab tizimini zaharlaydi. Kasallikning yashirin davri bir necha soatdan 2-5, hatto 10 kungacha cho'ziladi. Ko'p hollarda 12-24 soatda klinik belgilar paydo bo'la boshlaydi. Bemor holsizlikdan, kuchli bosh og'rig'idan, og'iz qurishidan, ko'ngil aynib qayt qilishdan va qorin sohasida kuchli og'riqdan shikoyat qiladi. Keyinchalik bemorda ko'z oldining xiralashuvi, narsalarning ikkita bo'lib ko'rinishi, ko'z qovoqlarini ko'tara olmasligi, yutinishning qiyinlashishi, ichayotgan suvi burnidan qaytib kelishi, gapirishning qiyinlashishi, manqalanib gapirish va hatto gapira olmasligi kuzatiladi. Bunday hollarda bemorga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilib, botulizmga qarshi zardob bilan davo muolajalari o'tkazilmasa nafas va yurak yetishmovchiligidan vafot etishi mumkin.

**Yusuf RAHIMOV,
Sanepidqo'mita viloyat
boshqarmasi bo'linma mudiri.**

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida bu illatni keltirib chiqaruvchi omillarga chek qo'yishga qaratilgan qat'iy va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, davlat dasturlari misolida ko'rish mumkin.

Prezidentimiz tomonidan 2026-yil "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha favqulodda holat" deb e'lon qilinganligi, Prezident Administratsiyasida komplayens xizmati tashkil qilinganligini alohida qayd etish mumkin.

Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi va tuman bo'limlarida ham bu illatga qarshi kurashish bilan bog'liq faoliyatni takomillashtirish yuzasidan jamuaviy chora-tadbirlar amalga oshirilib, uning oldini olish va profilaktika qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshqarmada korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro stan-

Illatga qarshi kurashishda jamoatchilik ko'magi zarur

dartlarga muvofiq alohida shtat birligi joriy etildi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish borasida qat'iy choralalar ko'rilmogda.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi va faoliyat yuritayotgan mas'ul xodimlar tomonidan bu illat bilan bog'liq huquqbu-zarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan vazifalar hamda yo'nalishlar belgilab olindi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, shuningdek, bunday salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, uning oldini olishga doir targ'ibot tadbirlari, xodimlarimizning huquqi ong va madaniyati-ni yuksaltirish borasida o'quv seminarlar, treninglar, brrifinglar, davra suhbatlari va so'rovlar muntazam

tashkil etib borilmoqda. Boshqarma faoliyatining jamoatchilik tomonidan kuzatib borilishi va shaffof-ligini ta'minlash maqsadida jarayonlar boshqarma-niing rasmiy veb-saytiga, ijtimoiy tarmoq kanallariga joylashtirib kelinmoqda.

Shuningdek, boshqarmaning kengaytirilgan yig'ilishida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha masalalar muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlarining mazmun-mohiyati bosh-qarma xodimlari va tuman bo'linmalari rah-barlar va xodimlariga yetkazildi, kelgusidagi chora-tadbirlar belgilandi. Tuman bo'limlari rahbarlari va xodimlariga korrupsiyaga qar-shi kurashish bo'yicha profilaktika ishlarini ko'rgazmali taqdimot materiallari, bukletlar, flaerlar va videodarsliklar orqali yetkazish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish, bunday

holat yuzaga kelganda yoki guvoh bo'lganda qanday xatti-harakatlar qilish bo'yicha tizimli tashviqot ishlar-ini yo'lga qo'yish, maishiy korrupsiyaga jiddiy e'tibor qaratish vazifasi topshirildi.

Shu o'rinda jamoatchilik va soha fidoyilaridan qishloq xo'jaligi tizimda mehnat qilayotgan xodim-larimizning qonunchilikka zid xatti-harakatlari yoki harakatsizliklarining guvohi bo'lishsa yoxud ular-niing korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlariga aloqadorligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lsalar, boshqarmamiz rasmiy sahifasida keltirilgan aloqa kanallari orqali o'z murojaat qilishlari mumkinligini bildirimoqchiman. Yo'llangan murojaatlar qonun-chilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlangan korrupsion holatlar bo'yicha keskin qonuniy choralar ko'riladi.

Jamoatchilikning yordami biz uchun har doim muhim. Bu illatga qarshi ku-rashish har birimizning el-yurt oldidagi fuqaroviy burchimiz ekanligini doim yod-da tutishimiz lozim.

Begzod TUGALOV,
viloyat qishloq xo'jalik
boshqarmasi boshlig'ining birinchi
o'rinbosari.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi-dan 2016-yil 21-iyunda 216-son bilan ro'y-xatga olingan O'zbekiston yong'inga qarshi kurash jamiyati Samarqand viloyat hududiy bo'linmasi ixtiyoriy ravishda tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladi-gan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

E'tirozlar qabul qilinadigan manzili:
O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri, Taraqqiyot ko'chasi, 14-uy, 21-xonadon.

Bo'linmaning soliq to'laydigan identifikat-sion raqami (STIR): 304061325.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Amonov Abdurafik Raxmonovichga (2017-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shah-lo Habibovna notarial idorasida marhum Murodov Murod-ali Xasanovichga (2025-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosa-bat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shah-lo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Ak-maljon Shavkatovich notarial idorasida mar-hum Nam Lyudmilaga (2025-yil 22-aprel-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasi-da marhum Boltayev Xazratga (2025-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu muno-sabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish sha-harchasi Amir Temur ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Abdullayev Abdunabi Abdullayevich-ga (2023-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'cha-si, 15-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Nazarov Raxmonga (2017-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayu-supovich notarial idorasiga murojaat etish-larini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

"SABR MIKROMOLIYA TASHKILOTI" MCHJning молиявий натижалари тўғрисидаги ҳисоботи

2026-йил 1-январ ҳолатига

Код	Кўрсаткичлар	Минг сўмда
	1. ФОИЗЛИ ДАРОМАДЛАР	
110	Банклардаги депозитлар бўйича фоизли даромадлар	
120	Жисмоний шахсларга берилган кредитлар (микроқарзлар) бўйича фоизли даромадлар	3 206 738
130	Ўзини ўзи банд қилган шахсларга берилган микрокредитлар бўйича фоизли даромадлар	0
140	Якка тартибдаги тadbirkorларга берилган кредитлар (микрокредитлар) бўйича фоизли даромадлар	0
150	Юридик шахсларга берилган кредитлар (микрокредитлар) бўйича фоизли даромадлар	0
160	Лизинг бўйича фоизли даромадлар	0
170	Бошқа фоизли даромадлар	0
180	Жами фоизли даромадлар (110+120+130+140+150+160+170)	3 206 738
	2. ФОИЗЛИ ХАРАЖАТЛАР	
210	Жалб қилинган қарз маблағлари бўйича фоизли харажатлар	106 804
220	Банклардан олинган кредитлар бўйича тўланиши лозим бўлган фоизли харажатлар	102 156
230	Бошқа кредиторларга тўланиши лозим бўлган фоизли харажатлар	0
240	Чиқарилган облигациялар бўйича фоизли харажатлар	0
250	Лизинг бўйича фоизли харажатлар	0
260	Бошқа фоизли харажатлар	
270	Жами фоизли харажатлар (210+220+230+240+250+260)	208 960
310	3. КРЕДИТ ВА ЛИЗИНГЛАР БЎЙИЧА КЎРИЛИШИ МУМКИН БЎЛГАН ЗАРАРЛАРНИ БАҲО-ЛАШГАЧА БЎЛГАН СОФ ФОИЗЛИ ДАРОМАДЛАР (180-270)	2 997 778
320	Минус: Кредит ва лизинглар бўйича кўрилиши мумкин бўлган зарарларни баҳолаш	233 999
330	Кредит ва лизинглар бўйича кўрилиши мумкин бўлган зарарлар баҳолангандан сўнг соф фоизли даромадлар (310-320)	2 763 779
	4. ФОИЗСИЗ ДАРОМАДЛАР	
410	Кафолатлар ва кафиликлар бўйича операцияларни амалга оширишда кўрсатилган хизматлар учун олинган даромадлар	0
420	Факторинг хизматлари бўйича олинган даромадлар	0
430	Хизматлар ва бошқа воситачиликдан олинган даромадлар	
440	Хорижий валюта курси ўзгариши натижасида олинган фойда	
450	Инвестициялардан олинган фойда ва дивидендлар	
460	Бошқа фоизсиз даромадлар	485 469
470	Жами фоизсиз даромадлар (410+420+430+440+450+460)	485 469
	5. ФОИЗСИЗ ХАРАЖАТЛАР	
510	Кўрсатилган хизматлар ва воситачилик харажатлари	22 021
520	Хорижий валюта курси ўзгариши натижасида кўрилган зарарлар	
530	Инвестициялардан кўрилган зарарлар	
540	Бошқа фоизсиз харажатлар	478
550	Жами фоизсиз харажатлар (510+520+530+540)	22 499
600	6. ОПЕРАЦИОН ХАРАЖАТЛАРГАЧА СОФ ФОЙДА (330+470-550)	3 226 749
	7. ОПЕРАЦИОН ХАРАЖАТЛАР	
710	Ходимлар иш ҳақи ва улар учун қилинган бошқа харажатлар	1 392 238
720	Ижара ва таъминот харажатлари	237 765
730	Хизмат сафари ва транспорт харажатлари	59 963
740	Маъмурий харажатлар	26 953
750	Репрезентация ва хайрия	13 759
760	Эскириш харажатлари	191 521
770	Сўғурта, солиқ ва бошқа харажатлар	107 101
780	Жами операцион харажатлар (710+720+730+740+750+760+770)	2 029 300
800	8. КРЕДИТ ВА ЛИЗИНГЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН КЎРИЛИШИ МУМКИН БЎЛГАН ЗАРАРЛАРНИ БАҲОЛАШ	0
900	9. ФОЙДА СОЛИГИ ВА БОШҚА ТУЗАТИШЛАРГАЧА БЎЛГАН СОФ ФОЙДА (600-780-800)	1 197 449
	10. Фойда солиғи	
1000	Фойда солиғини баҳолаш	185 322
1100	11. ТУЗАТИШЛАРГАЧА БЎЛГАН ФОЙДА (900-1000)	1 012 127
1110	Фойдагача бўлган тузатишлар, соф *	-725 808
1200	12. СОФ ФОЙДА (ЗАРАР) (1100+1110)	286 319

Ҳисоботнинг аниқлиги "КОМИЛ-ИШОНЧ" аудиторлик фирмаси томонидан 2026 йил 10 мартда тасдиқланди.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Islamov Narzulla Uzakovichga (2024-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosa-bat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Achilov Saydirasulga (2018-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqu-lovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida mar-hum Mamatov Klichga (2013-yil 27-iyun-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Istiqloil ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Za-rina Xisravovna notarial idorasida marhum Valiyeva Sharofatga (2018-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravov-na notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Gafurova Zulfiya Xamrayevnaga (2010-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munos-abat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Kattaqo'rg'on shahrida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Sharipov Elyorjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Ruzi-kulov Faxridin Jalilovichga (2023-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan me-rosxo'rlarning Sharipov Elyorjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Kattaqo'rg'on shahri Alisher Navoiy ko'chasi. Mo'ljal: Jinoyat ishlari bo'yicha shahar sudi binosi.

TOPGANGA MUKOFOTI!

Samarqand markaziy o'rmon xo'jaligi boshqarmasiga qarashli 2018-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 30 FA 004 bo'lgan "Belarus-80.1" rusumli traktorning texnik pasporti Samarqand shahri hududi-da tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni top-ganlar mukofof evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon:
+99877-030-69-77.

BEKOR QILINADI

Samarqand tumanidagi "VOYAGE-LO-GISTICS" mas'uliyati cheklangan jamiya-tining (STIR: 311630864) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Nurobod tumanidagi 1-son davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining (STIR: 306262707) gerbli dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli be-kor qilinadi.

Insoniylik...


Yoxud G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasini o'qib

Ardoqli adib G'afur G'ulom nafaqat she'riyatda, balki nasrda ham o'ziga xos uslubga ega ijodkor edi. Adibning asarlari meni doim o'ziga jalb qilib kelgan. Yaqinda “Yodgor” qissasini mutolaa qilib, insoniy fazilatlar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda nuqson va kamchiliklar, o'tmish va bugunni kashf etdim.

1936-yilda yozilgan “Yodgor” qissasi G'afur G'ulomning insonparvarlik g'oyalari va jamiyatdagi axloqiy muammolarga bo'lgan munosabatini yorqin aks ettiradi. Asarda yosh yigitning kutilmagan sarguzashtlari orqali insoniylik, mas'uliyat va fidoyilik kabi olibanob fazilatlar ifoda etiladi.

Qissa voqealari yozning issiq kunlarida, sokin Toshkent ko'chalaridan birida tasodifiy uchrashuvdan boshlanadi. Bosh qahramon - g'ayratli yigit yo'lida bir juvonn uchiradi. Juvon o'zining baxtsiz nikohi, erining zulmi va adolatsizligi haqida so'zlab, yigitdan g'alati bir yordam so'raydi: u vaqtincha uning “eri” rolini o'ynab, FHDI bo'limida ajrashishga yordam berishi kerak edi.

Yigit xolis xizmat qilish istagi bilan bu taklifga rozi bo'ladi. Biroq ajrashish jarayoni yakunlangach, juvon kutilmaganda yosh go'dakni yigitning qo'lida tutqazib, qochib ketadi. Shu lahzadan boshlab yigitning hayoti butunlay o'zgaradi va u begona bolaning taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.



Qissada bir necha muhim ijtimoiy va axloqiy masalalar ko'tarilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, unda bosh qahramon bolani ko'chaga tashlab ketmaydi. U jamiyatning malomatlariga, yaqinlarining tushunmovchiliklariga qaramay, bolani o'z uyi va uyi va onasining bag'riga olib boradi.

Adib asarda onaning obrazini mehr bilan tasvirlaydi. Onaning yosh go'dakka bo'lgan munosabati orqali o'zbek ayolining bag'rikengligi, bolajonligi va tabiiy onalik mehri ko'rsatiladi. Garchi, ona dastlab o'g'lining bu “qilig'i”dan qattiq ranjisa-da, go'dakning begunohligi va unga bo'lgan rahm-shafqat hissi ustun keladi.

Yigitning qo'lida go'dak bilan tramvayda ketishi yoki ko'chada yurishi davomidagi odamlarning munosabati o'sha davrdagi jamiyatning qarashlarini ochib beradi. Kimdir unga achinsa,

kimdir malomat qiladi.

Qissadagi obrazlar tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, unda yigit, ya'ni bosh qahramon Jo'ra soddadil, mard va mas'uliyatli ekanligini uqish mumkin. U o'zining bironvga bergan va'dasi va keyinchalik paydo bo'lgan insoniy burchi tufayli og'ir yukni yelkasiga oladi.

Juvon, ya'ni Mehrixon hayotdan nolib, o'z baxtsizligini boshqa bironvning (hatto o'z bolasining ham) zimmasiga yuklash orqali “erkinlik”-ka erishmoqchi bo'lgan ziddiyatli obraz.

Ona esa asarning ma'naviy asosi. U tajribali, o'z umrida olti bolani oq yuvib, oq tarab o'stirgan o'zbek onasining timsoli. Shu bilan birga, xalqimizga xos bolajonlik fazilatlarining ifodachisi.

Xulosa o'rnida aytganda, “Yodgor” qissasi shunchaki bir tasodif haqidagi hikoya emas, balki inson qalbining sinovi haqidagi asar. G'afur G'ulom ushbu asar orqali “Yodgor” timsolida insoniylik va vijdon qanchalik baland turishi kerakligini isbotlaydi. Asar bugungi kunda ham yosh avlodni mas'uliyatli bo'lishga va o'zgarlar dardiga befarq bo'lmaslikka chorlovchi muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Sevinch AZAMATOVA, Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi.

Mutolaa


Yonimizdagi odamlar

Navoiyni olmonlarga tanishtirayotgan olim va tarjimon

Alisher Navoiy “G'aroyib us-sig'ar” devonining 260-g'azali maqtasidan oldin begona bayt sifatida:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish,

deb yozadi. Ayni hikmatni u faqat tarixni, yakkash o'z zamoninigina emas, uzoq-uzoq kelajakni ham ko'zlab bitgan. Bu har qanday zamon va makon uchun birday daxldor g'oya yo nasihat.



Nemis xalqi ikkita jahon urushini boshlab, nima ko'rdi? Mag'lubiyatdan boshqa hech narsa ko'rmadi. Oxiri “yorlig'”, ya'ni do'stlashish, tinch taraqqiyot yo'lga o'tdi. Dunyoga o'zining buyuk xalq ekanini shu yo'l bilan isbotlashni maqsad qildi. Shu-shu Germaniya Yevropaning eng taraqqiy etgan, Yer yuzining uchtdan bitta mamlakatiga aylandi.

O'zbekiston uchun Germaniya bilan hamkorlik o'ta muhim ahamiyatga ega. O'tgan 35 yil mobaynida ikki davlat o'rtasida keng miqyosdagi do'stona munosabatlar o'rnatildi.

Jahon maydonida “xalq diplomatiyasi”, degan tushuncha bor. Ikki davlat miqyosidagi hamkorliklardan tashqari, shu mamlakatlarda xalqlari o'rtasida ham yaqin hamkorlik o'rnatish, bir-birining tarixi, madaniyati bilan tanishish, o'zaro bordi-keldilar, ilmiy-ijodiy hamkorliklar qilish lozim. Ana shuning otini “xalq diplomatiyasi”, deyishadi.

Xurram Rahimov O'zbekiston va Germaniya o'rtasida xalq diplomatiyasini o'rnatish va rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan faol, fidoyi, jonkuyar ziyolilarimizdan biri.

U 1951-yilda Jomboy tumanidagi Nazar qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni, Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti nemis tili fakultetini tamomlagan. Urganch davlat pedagogika instituti, Sirdaryo pedagogika instituti o'qituvchisi sifatida ishlagan. Keyin Moris Torez nomidagi Moskva davlat chet tillar pedagogika instituti aspiranturasini o'tagan. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi, dotsent va professor ilmiy unvonlari sohibi.

Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutida, Toshkent davlat universitetida mehnat qilgan. So'ng “Liberti” va “Savob-Empeks” Germaniya-O'zbekiston qo'shma korxonalarida direktor o'rinborsari, direktor sifatida faoliyat yuritgan. Ko'p yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida chet tillar fakultetini, olmon tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini boshqardi. O'zbekiston jahon tillari universiteti nemis tili nazariy fanlari kafedrasini professori sifatida talabalarga tarjima nazariyasi va amaliyoti, olmon adabiyoti tarixi va olmon tili uslubiyoti fanlaridan dars berdi.

Uning 44 nomda tarjima kitoblari, tarjima xususliklari oid 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chop etildi. 1990-yildan boshlab nemis tilidagi asarlarni o'zbek tiliga, o'zbek asarlarini nemis tiliga tarjima qildi. Bular “Yetti oqqush”, “Yetti yulduz”, “O'zbek xalq ertaklari”, “O'zbek sehirli ertaklari”, “Samarqand ertaklari”, “Nasridin Afandi va Myunxauzen sarguzashtlari” kabi asarlardir.

Keyinchalik tarjimon buyuk mutafakkir Alisher Navoiy g'azallarini nemis tiliga o'girishga bel

bog'ladi. 2021-yil Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan shoirning 100 ta g'azalini tarjima qildi. Asar “Qaro ko'zum” nomi bilan “Adabiyot” nashriyotida bosildi. So'ng kitob O'zbekiston Respublikasining Germaniyadagi elchixonasi ko'magi bilan Olmoniyada nashrdan chiqdi. 2024-yil aka-uka Grimlarning 100 ga yaqin ertagi uning tarjimasida 5 ming nusxada chop etildi. Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Munojot” asari olmonchaga o'girildi.

Olim va tarjimon tashabbusi bilan “Navoiy XXI asr. O'zbek adabiyoti olmon tilida” jurnali tashkil etilyapti.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Xurram Rahimov bugungi kunda O'zbekiston nemis tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi, Germaniyadagi Olmon-o'zbek ilmiy jamiyati, Markaziy Osiyo nemis tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi raisi, Germaniyada chiqadigan “Avitsenna” ilmiy jurnali bosh muharriri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

2021-yilda “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlangan X.Rahimov chop ettirgan kitoblar bir stol ustiga terilsa, joy yetmaydi. Shuningdek, uning muallifligida 27 ta o'quv qo'llanma yaratildi, xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida 30 ga yaqin ilmiy ma'ruzasi bilan qatnashdi. Ayni kunlarda domla Navoiyning “Xamsa” dostonlarini nemis-chaga tarjima qilmoqda. “Olmon-o'zbek folklor aloqalari nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda.

O'zbek adabiyoti namunalari xorijiy tillarga tarjima qilishning o'ziga xos muammolari mavjud. Birinchidan, chet ellarda o'zbek tilini puxta biladigan va adabiyotimiz namunalari o'z tiliga maromiga yetkazib tarjima qiladigan mutaxassis yo'q. Sho'ro davrida Alfred Kurella Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini rus tiliga satra-satr nemis tiliga o'g'irgan. Buning oqibatida asarning asl tilini bilmaslik muammosi yuzaga chiqdi. Mustaqillik yillarida esa xorijiy til bilgichlari o'zbek adabiyoti namunalari chet tiliga o'g'irishga kirishdi. Endi yana bir muammo yuzaga keldi. Ya'ni, ayrim tarjima ustalari bu tarjimalarning tili yuksak didli xorij o'quvchisining ta'biga o'tirarmikan, degan savol paydo bo'ldi.

Xo'sh, nima qilish kerak? Xurram aka dadillik bilan ikkinchi yo'lni tanladi, o'zbek adabiyoti namunalari nemis tiliga o'g'irishga kirishdi va bu mas'uliyatli ishni uddalamoqda.

Ijodkor kishining loyihasi tugamas, yangi-yangi maqsadlar, rejalar to'yaver ekan. Xurram aka ham shu kunlarda ko'plab orzu-havas, ilmiy-ijodiy rejalarni tuzib, ularni amalga oshirish uchun yelib-yuguryapti.

Olim, tarjimon Xurram Rahimovni muborak 75 yosh bilan qutlab, u kishiga katta ilmiy-ijodiy yo'lida ulkan yutuqlar tilaymiz.

Sultonmurod OLIM, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Yangi kitoblar

Katta muammolar ko'pincha kichik befarqliklardan boshlanadi. Bir qarashda oddiy tuyulgan holatlar – vaqtni behuda sarflash, imkoniyatni qadrlamaslik, tarbiyadagi e'tiborsizlik asta-sekin jamiyat hayotiga ta'sir qiladi. “Zarafshon” gazetasi kutubxonasi” turkumida nashr etilgan “Befarqlikdan bedorlikka” nomli kitobda ijodkor kitobxon diqqatini ana shu ko'rinmas nuqtalarga qaratadi.

“Befarqlikdan bedorlikka”

Yaqinda kitobxonlar qo'lga yetib borgan ushbu to'plam “Zarafshon” gazetasi muxbiri To'lg'in Sid-diqovning turli yillarda yozgan, o'quvchilar orasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'lgan maqolalari jamlanmasidir.

Muallifning qalamida hayot nafasi bor. U oddiy voqea ortidan katta ma'no topa oladi, kundalik holatdan umumiy xulosa chiqaradi. Maqolalarda balandparvoz da'vatlardan ko'ra, hayotning o'zi guvoh bo'lgan holatlar, odamlar taqdiri, turmushimizda uchratayotgan muammo va yutuqlarga nisbatan xolis va o'ychan munosabat aks etgan. Muallif o'quvchini aybdor izlashga emas, sabab izlashga chaqiradi. Chunki bedorlik tanqididan emas, anglashdan boshlanadi.

To'plamda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, vaqt qadri, farzand tarbiyasi, oilaviy muhit, ta'limga munosabat, mehnat madaniyati, isrofgarchilik kabi dolzarb masalalar keng yoritilgan. Bir qarashda turli mavzularni qamrab olgan bu maqolalarni yagona g'oya – inson mas'uliyati birlashtirib turadi. Muallif muammolarni faqat tashqi omillar bilan izohlashdan ko'ra, ularning ildizini insonning o'zidan, uning qarashi va munosabatidan izlashga harakat qiladi.

Maqolalardagi fikrlar har bir insonni o'z hayoti va atrofiga mas'uliyat bilan qarashga undaydi. Aytish mumkinki, “Befarqlikdan bedorlikka” — bu tanqid emas, bu uyg'onish chaqiruvi. Har bir o'quvchini “Men nima qilyapman?” degan savolga javob izlashga undaydigan kitob.

“Muhokamadagi mavzular”

Har bir ongli insonga xos bo'lgan tabiiy xususiyat shundaki, u o'ylaydi, solishtiradi, tahlil qiladi, baholaydi, xulosa chiqaradi. Ushbu tabiiy xususiyatlarini ishga solgan holda mulohaza yuritadi, muhokamalarga kirishadi. Yaqinda “Sahhof” nashriyotida chop etilgan “Muhokamadagi mavzular” jamlanmasi shu kabi mavzularni qamrab olgan.

Mazkur risolada “Zarafshon” gazetasida “Mulohaza uchun mavzu” rukni ostida chop etilgan davrning dolzarb muammolari, turmushning ruhiyatimiz bilan bog'liq nozik masalalari aks etgan mulohazalar jamlangan. Unda turli soha vakillari, xususan, o'qituvchi, huquqshunos, ijtimoiy ko'makchi, talaba va eng muhimi, katta hayot tajribasi hamda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga ega ziyoliy insonlarning xulosalari o'rin olgan.

Kitobni mutolaa qilar ekansiz, taraqqiyot faqat raqamlar va ko'rsatkichlar bilan emas, balki madaniyat, odob, o'zaro hurmat va mas'uliyat bilan o'lchanishini yana bir bor his etasiz. Agar har birimiz o'z burchimizga sidqidildan yondashsak, berilgan imkoniyatlarni qadrlasak, farzandlarimizni ma'rifatli qilib tarbiyalasak, jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlar yanada mustahkamlanadi.

Ushbu to'plam nafaqat keng o'quvchilar ommasi, balki yosh qalamkashlar uchun ham ibrat maktabi bo'ladi. Chunki unda samimiyat, hayotga yaqinlik va mas'uliyatli ijodkor ruhi mujassam. Bu maqolalar har birimizni o'zimizga nazar tashlashga, “Men jamiyat ravnaqi uchun qanday hissa qo'shyapman?” degan savolni berishga undaydi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 846 nusxada chop etildi. Buyurtma 150. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LOMLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

